

XV ASRNING BIRINCHI YARMIDA SAMARQAND ILMIY VA MA’NAVİY MUHITIDA MUTASAVVIFLARNING FAOLIYATI.**Shotemirov Abbos Xoshimovich***Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XV asrning birinchi yarmi va o‘rtalarida Temuriylar poytaxti Samarqand shahrida shakllangan o‘ziga xos ilmiy-ma’naviy muhit hamda unda mutasavviflarning tutgan o‘rni tadqiq etilgan. Muallif sovet davri tarixshunosligidagi “Ulug‘bek akademiyasi” va diniy-tasavvufiy doiralar o‘rtasida go‘yoki keskin dushmanlik bo‘lgan degan biryoqlama va mafkuraviy qarashlarni rad etadi. Maqolada arab va fors tillaridagi birlamchi manbalar (manoqiblar, maktublar, vaqf hujjatlari) hamda zamonaviy tadqiqotlar asosida ratsional ilmlar (astronomiya, matematika) va irfoniy dunyoqarash (tasavvuf) o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik ochib berilgan.*

Abstract. *This article examines the unique scientific and spiritual environment that emerged in Samarkand, the Timurid capital, during the first half and middle of the 15th century, along with the role of Sufis within this milieu. The author refutes the biased and ideologically driven perspectives of Soviet historiography, which alleged a fierce hostility between the "Ulugbek Academy" and religious-Sufi circles. Based on primary sources in Arabic and Persian (manaqib, letters, waqf documents) as well as contemporary research, the article highlights the intrinsic connection between rational sciences (astronomy, mathematics) and the irfani (Sufi) worldview.*

Kalit so‘zlar: *Temuriylar renessansi, Mirzo Ulug‘bek akademiyasi, Qozizoda Rumi, tasavvuf, Naqshbandiya, Sayyid Qosim Tabriziy, Abdurahmon Jomiy, matnshunoslik, Adabul-bahs, munozara madaniyati.*

Kirish. XV asrning birinchi yarmi Samarqand tarixida ilmiy va ma’naviy taraqqiyotning yuqori bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi. Temuriylar davrida, ayniqsa Shohruh va Mirzo Ulug‘bek hukmronligi yillarida shahar nafaqat ilm-fan markazi, balki kuchli ma’naviy muhitga ega diniy markaz sifatida ham shakllandi. Bu jarayonda mutasavviflar jamiyatning ruhiy hayoti, axloqiy qadriyatlari va siyosiy barqarorligida muhim o‘rin egalladi. Samarqand ilmiy muhitida madrasalar va ilmiy markazlar bilan bir qatorda tasavvuf tariqatlari ham faoliyat yuritgan. Naqshbandiya va Yassaviya ta’limotlari keng tarqalib, ular xalq orasida axloqiy tarbiya, halollik, mehnatsevarlik va ma’naviy poklanish g‘oyalarini targ‘ib qilgan. Bu tariqatlar shahar hayotining ijtimoiy-ma’naviy tizimiga chuqur singib, ilmiy muhit bilan uyg‘unlashgan holda rivojlangan.

Mutasavviflar faqat diniy targ‘ibotchilar emas, balki ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlovchi ma‘naviy yetakchilar ham bo‘lgan. Ular xalq va hukmdor o‘rtasidagi ma‘naviy ko‘prik vazifasini bajargan, hukmdorlarni adolat va shariat tamoyillariga amal qilishga chaqirgan. Shu bilan birga, ularning nufuzi siyosiy jarayonlarga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Xususan, Samarqand va Movarounnahr hududida naqshbandiya shayxlarining ta‘siri kuchli bo‘lib, ular jamiyatda katta hurmat va ishonchga ega edi. Manbalarda ularning davlat siyosatidagi ayrim jarayonlarga bilvosita ta‘sir ko‘rsatgani, ayrim hollarda esa hokimiyat uchun kurashlarda ma‘naviy qo‘llab-quvvatlovchi kuch sifatida maydonga chiqqani qayd etiladi.

Bu davrda tasavvuf ilm-fan bilan qarama-qarshi emas, balki uyg‘un tizim sifatida rivojlandi. Ilmiy markazlarda faoliyat yuritgan olimlar va mutasavviflar bir-birining faoliyatini to‘ldirib, Samarqandning ma‘naviy-intellektual muhitini yanada boyitdilar. Natijada shahar nafaqat ilmiy, balki yuksak ma‘naviy markaz sifatida ham Sharq uyg‘onish davrining muhim o‘choqlaridan biriga aylandi.

Samarqandda, Ulug‘bek davridagi sharoit Hirotdagidan sezilarli darajada farq qilgan. Aftidan, Samarqand saroyi davrning ijtimoiy va ma‘naviy talablarini to‘liq hisobga ola olmagan. Ulug‘bekning islomga munosabati turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, uni islomga zid yoki unga shon keltirmagan degan xulosa mutlaq tarzda qabul qilinmaydi. Shu bilan birga, yozma manbalarda Ulug‘bek va saroyning yuqori tabaqa vakillari axloq-odob qoidalariga har doim ham qat‘iy amal qilmaganliklari qayd etiladi. Bu holat diniy ulamolarning bir qismini saroyga nisbatan salbiy munosabatga undagan. Natijada saroy va din vakillari o‘rtasida ma‘lum darajada ziddiyatli holat shakllangan.

Natija. “Ulug‘bek akademiyasi” ilmiy jamoasining faoliyati sovet davri tarixshunosligida hukmron mafkura ta‘siri ostida biryoqlama va noxolis talqin etilgan. Ayrim tadqiqotlarda Mirzo Ulug‘bek vafotidan so‘ng uning rasadxonasi Xoja Ahror (1404–1490) va boshqa diniy arboblarning fatvosi bilan vayron qilingan, shuningdek, Ali Qushchi o‘sha yiliyoq ta‘qibga uchrab mamlakatdan chiqib ketgan, degan asossiz fikrlar ilgari surilgan.

Aslida Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyati islom diniga zid bo‘lmagan. Buni o‘sha davrda yaratilgan tasavvufiy va ilmiy manbalar ham tasdiqlaydi. Jumladan, Abu Ali al-Husayn ibn Yahyo al-Buxoriy az-Zandavistiy (vaf. 1459) tomonidan hanafiylik ruhida arab tilida yozilgan “Ravzat al-uloamo va nuzhat al-fuzalo” (“Olimlar bog‘i va fozillar sayri”), Sariyuddin Dovud ibn Komil al-Mihlabiyga mansub “Minhaj al-muttaqin va mi‘roj al-muxlisin” (“Taqvodorlar yo‘li va ixlos qiluvchilar darajasi”) hamda Jamoliddin Ahmad Urdustoni qalamiga mansub “Mahbub as-siddiqin” kabi asarlar bunga dalil bo‘la oladi. “Mahbub as-siddiqin” asarida muallif Mirzo Ulug‘bek saroyida xizmat qilgani qayd etiladi. Urdustoni nisbasi uning Isfahon yaqinidagi Urduston qishlog‘idan ekanligini bildiradi. Ushbu manbalar Ulug‘bek davridagi ilmiy muhit va diniy qarashlar o‘rtasida keskin qarama-

qarshilik bo‘lmaganini, aksincha, ilm-fan va tasavvufiy an‘analar ma‘lum darajada uyg‘un rivojlanganini ko‘rsatadi.

“Ulug‘bek akademiyasi” faoliyatiga oid ma‘lumotlar o‘sha davrda yaratilgan manoqib asarlarida ham uchraydi. Jumladan, “Rasha‘otu aynil-hayot” asarida xojagon-naqshbandiya tariqatining vakili Muhammad Porsoning Samarqanddagi ilmiy bahslarda ishtirok etgani qayd etiladi. Temuriylar poytaxti Samarqandda bunday ilmiy munozaralar muntazam ravishda o‘tkazilib kelgani an‘anaviy holatga aylanganini alohida ta‘kidlash lozim. A. Muminov bu kabi ilmiy yig‘inlarda odatda “Sohibi Hidoya” avlodlariga mansub, shayxulislom maqomidagi ulamolar faol ishtirok etmasdan, ko‘proq kuzatuvchi sifatida qatnashganiga e‘tibor qaratadi. Bu holatni Sa‘duddin Taftazoniy va Sayyid Sharif Jurjoniy, shuningdek, Shamsiddin Muhammad Jazariy va Muhammad Porso o‘rtasidagi ilmiy bahs-munozaralar misolida ham kuzatish mumkin. Mazkur jarayonlar Samarqand ilmiy-madaniy muhitida tasavvuf vakillarining ham o‘ziga xos o‘rni va ta‘sirga ega bo‘lganini yaqqol ko‘rsatadi.

Mashhur tasavvuf olimi va shoiri Sayyid Qosim Tabriziy (1355–1433) “Ulug‘bek akademiyasi”ning yirik vakillaridan biri bo‘lgan Qozizoda Rumiylar bilan yaqin aloqada bo‘lib, u bilan muntazam maktublashib turgan. Bu haqda “Maqomoti Xoja Ahror” asarida ma‘lumot beriladi. Yapon tadqiqotchisi Masatovo Kavamoto ushbu manbani Yaponiyada nashr etgan. Mazkur manbalardan ma‘lum bo‘lishicha, Sayyid Qosim Tabriziy Samarqandga ikki marta tashrif buyurgan. U ilk bor Amir Temur hayotligi davrida kelib, Sohibqiron huzurida bo‘lgan va bu uchrashuvdan olgan taassurotlarini “Amir Temurni ko‘rish voqeasining bayoni” nomli masnaviyda ifodalagan. Ushbu asar keyinchalik fors tilidan kirill yozuviga ham transliteratsiya qilingan. Umuman olganda, Sayyid Qosim Tabriziy Samarqand ilmiy muhiti bilan Amir Temur davridayoq yaqin aloqalar o‘rnatgan va bu aloqalarini keyingi davrlarda ham davom ettirgan. Xususan, uning Ulug‘bek akademiyasi vakillari, jumladan Fathulloh Tabriziy va Qozizoda Rumiylar bilan ilmiy-madaniy munosabatlari bunga yaqqol dalil bo‘la oladi.

Muhokama. Jomiy Samarqandga kelgach, o‘sha davrning eng yirik olimi va matematigi, Mirzo Ulug‘bekning bosh ustoz bo‘lmish Qozizoda Rumiylar raisligidagi ilmiy hay‘at (komissiya) huzurida imtihon topshiradi. Manbalarda keltirilishicha, Qozizoda Rumiylar yosh Jomiyning teran fikrlashi, ayniqsa, aniq fanlarga bo‘lgan iqtidorini ko‘rib, uning zehniga yuqori baho beradi. Sinovdan muvaffaqiyatli o‘tgach, Jomiy Ulug‘bek madrasasida o‘qishini davom ettiradi. U ushbu ilm maskanida faqatgina diniy yoki adabiy bilimlar bilan cheklanib qolmay, hay‘at – ya‘ni astronomiya (falakiyot) va matematika fanlaridan chuqur tahsil olgan. Mazkur darslarda u nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi, balki o‘sha davrda Samarqand rasadxonasida olib borilayotgan kuzatuvlar va mashhur "Ziji Ko‘ragoniy" jadvallarining

tuzilish jarayonlari bilan ham yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ladi. Abdurahmon Jomiyning Samarqanddagi ushbu tahsil davri va falakiyot ilmini o‘rgangani haqida uning zamondoshlari tomonidan yozilgan manobalarda hamda Faxriddin Ali Safiyning mashhur “Rashahotu aynil-hayot” asarida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Bu ilmiy poydevor keyinchalik Jomiyning nafaqat buyuk shoir va tasavvuf nazariyotchisi, balki o‘z davrining keng dunyoqarashga ega bo‘lgan yirik qomusiy olimi sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynagan.

Bu haqda uning manqibi va “Rashahotu aynil-hayot” asarida ma’lumot berilgan. U o‘qigan darsliklar Mirzo Ulug‘bekning yaqin safdoshi G‘iyosiddin Jamshid Koshiyning otasiga yozgan maktubida ham eslatilgan⁶³. Bundan 600 yil oldin yozilgan ushbu maktubning bugungi o‘zbek manbashunoslik, matnshunoslik ilmiy maktablari uchun ibrat bo‘ladigan quyidagi jihatiga e’tibor qaratish lozim topildi: “Kunlardan bir kun Sulton Ulug‘bek hazratlari ilmiy mashg‘ulotlar bilan band edilar. Va ushbu darslarda Qozizoda Rumiy ishtirok etib, “Qonuni Mas’udiy”dagi bir isbotni tushintirar edilar. Ushbu mashg‘ulotda qo‘lda “Qonuni Mas’udiy” bo‘lishi Sulton Ulug‘bek tomonidan buyurilgan edi. Qozizoda Rumiy ... ushbu muammo bu nusxa bo‘yicha to‘la ravishda yechilmas ekanligini va ushbu nusxa bilan solishtirish uchun boshqa nusxani qidirib topish kerakligini aytdi”. Ma’lum bir manbaning bir necha qo‘lyozma nusxalarini solishtirib o‘rganishga oid bunday yondashuv bugungi kunda ham juda dolzarb hisoblanadi. Ana shunday ilmiy muhitda, yirik astronomlar ichida tahsil olgan Abdurahmon Jomiyning keyinchalik, naqshbandiya tariqatining rahnamosi sifatida faoliyat ko‘rsatganini ham alohida ta’kidlash lozim. U naqshbandiya ta’limoti bilan ham aynan Samarqandda tanishgan⁶⁵. Uning ustozlari Samarqand muhitida kamol topgan Sa’duddin Qoshg‘ariy keyinchalik nashbandiya ta’limotini Xuroson va Sharqiy Turkistonga yoyilishiga katta hissa qo‘shgan. Aynan u orqali Nizomiddin Xomushning tariqat silsilasi davom etgan.

Xulosa. Tadqiq etilgan davr ma’lumotlari XV asr Samarqand intellektual muhitining o‘ziga xos konseptual xususiyatlarini ochib beradi. Birinchidan, Mirzo Ulug‘bek akademiyasining aniq fanlar yo‘nalishi bilan Xojagon-Naqshbandiya tariqati namoyandalari o‘rtasida uzviy g‘oyaviy aloqadorlik mavjud bo‘lib, bu ilm va irfon sintezini yuzaga keltirgan. Ikkinchidan, madrasalarda maxsus o‘qitilgan “Adabul-bahs” (Munozara odobi) ilmi jamiyatda mantiqiy tafakkurning yuksak darajada bo‘lganini ko‘rsatadi. Uchinchidan, Darvesh Ahmad, Maxsumzoda Xorazmiy singari ustoz ijodkorlar tomonidan amal, savt, peshrav, naqsh kabi musiqiy janrlarning rivojlantirilishi kelajakda Shashmaqom tizimining shakllanishiga zamin yaratdi. Umumiy aytganda, ilm-fan, tasavvufiy falsafa va professional musiqaning bunday uyg‘unligi Mavorounnahrda ikkinchi Sharq renessansining eng yirik cho‘qqilarini tayyorlab bergan bosh omildir. XV asrning birinchi yarmi va o‘rtalaridagi

Samarqand muhiti o‘zining bag‘rikengligi, intellektual erkinligi va madaniy rang-barangligi bilan ajralib turadi. Aynan aniq fanlar, tasavvufiy falsafa, yuksak munozara madaniyati va professional musiqa san‘atining sintezi keyingi davrlarda Temuriylar renessansining Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy kabi eng yuksak cho‘qqilarini tayyorlab bergan asosiy poydevor vazifasini o‘tagan.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Faxriddin Ali Safiy.** Rashhotu aynil-hayot (Obi hayot tomchilari) / Forsiydan tarjimonlar: M. Hasaniy, B. Umrzoqov. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. – 512 b.
2. **Mirxo‘rd Said Shayx Muhammad al-Qozi.** Maqomoti Xoja Ahror (Xoja Ahror Vali maqomoti). O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi. – Inv. № 4272.
3. **G‘iyosiddin Jamshid Koshiy.** Maktubi Qozizodai Rumi va Mirzo Ulug‘bek / Forscha matn va tarjima. – Tehron: Ilmiy nashriyot, 1342 (hifriy). – 84 b.
4. **Nizomiddin Xomush.** Dar bayoni tariqai naqshbandiya (Qo‘lyozma). – Turkiya, Istanbul: "Sulaymoniya" kutubxonasi, Nafiz posho fondi. – Inv. № 412/4.
5. **Shamsiddin Muhammad b. Ashraf al-Husayniy as-Samarqandiy.** Adabul-bahs (Munozara qilish odobi risolasi). O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti toshbosma fondi. – Inv. № 1845.
6. **Xoja Ubaydulloh Ahror.** Malfuzot (Suhbatlar) / Forsiydan tarjima, so‘zboshi va izohlar muallifi: I. To‘rayev. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2011. – 216 b.
7. **Abdurahmon Jomiy.** Nafahotul-uns min hazarotil-quds (Muqaddas maskanlar shabadasi) / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: M. Aminov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2014. – 480 b.
8. **O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.** – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
9. **Islam Ansiklopedisi.** – Istanbul: Millî Eđitim Basımevi, 1940. – Cilt 1-13.
10. **O‘rta asr Sharq allomalari ensiklopediyasi.** – Samarqand: (nashriyoti ko‘rsatilmagan), 2016.